



## MUSIQA NAZARIYASI FANIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH (MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI MISOLIDA)

**Muallif:** Mirzayeva Marjona Ilhom qizi<sup>1</sup>, Yarashev Jo'rabek To'rayevich<sup>2</sup>

**Affilyatsiya:** Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti<sup>1</sup>, Buxoro davlat pedagogika instituti professori, p.f.f.d. (PhD)<sup>2</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14407779>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarining musiqa nazariyasi fanida mavzu yuzosidan turli xil interfaol metodlardan foydalanish usullari ko'rsatilgan. Interfaol metodlarning foydali jihatlari keng va asosli yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa, metod, maktab, ta'lim, texnologiya, usul, mazmun, kuy, ohang.

Sharq falsafasining judda muhim masalalaridan biri komil inson tarbiyasi hisoblangan. Bunda musiqaning o'rne nihoyatda katta. Binobarin, musiqaga falsafiy nuqtayi nazardan yondashish jarayonida ham avvalo uning inson ruhini takomillashtirishdagi o'rniga muhim ahamiyat qaratilgan. Sharqning ulug' mutafakkiri, bobomiz Ibn Sino shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini asoslab bergan.

Bolalar musiqa va san'at maktablari yosh avlodning musiqiy bilimlarini rivojlantirish va ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun tashkil etilgan o'quv maskanlardir. Yurtimizda bu borada keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonivechning “Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016 — 2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida” 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorida o'z aksini togan.

Musiqa ta'limi nafaqat bilim, balki ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni ham talab qiladigan yo'nalishlardan biridir. Musiqa ta'limi o'z tabiatiga ko'ra ham san'at, ham tarbiya ta'limotidir. Musiqa va san'at maktablarida musiqaning turli xil qirralari chuqurlashtirib o'rgatiladi. Ayniqsa, musiqa nazariyasi, solfejio darslari judda muhim asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Bu darslarni mazmunli tashkil etishda turli metodlardan foylanish zarur. Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish muhim o'rin tutadi, chunki ular o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, darsni qiziqarli va samarali qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni dars jarayoniga faol jalb qilish uchun turli innovatsion yondashuvlar va interfaol metodlar qo'llanilmoqda. Interfaol metodlar o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, ularning bilim olish jarayonini jonlantiradi. Interfaol metodlar ta'lim

jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro faoliyatni kuchaytirish, o'quvchilarni darsga jalb qilish orqali bilimlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Bu metodlarning asosiy maqsadi o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishdir. Musiqa darsida bunday metodlar yordamida o'quvchilar musiqaning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirgan holda o'rganadilar.

Musiqa nazariyasi darsida qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol metodlar

1. Jamoaviy o'yinlar va amaliy mashqlarda „Aqliy hujum“, „Baliq skeleti“, „Jigsa“, „Venn diagramasi“, „Munozara“ metodlaridan foydalanish mumkin. Musiqiy bilimlarni o'rgatishda o'quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb qilish samarali hisoblanadi. Masalan, o'quvchilarni turli guruhlariga ajratib, har bir guruhga turli xil musiqiy topshiriqlar berish mumkin. Bu guruhlar birgalikda ishlash orqali o'z bilimlarini almashadilar va o'rganish jarayoni qiziqarli kechadi. Masalan, har bir guruhga notalar asosida qisqa musiqiy parcha yaratish topshirig'i berilishi mumkin.

2. Raqamli texnologiyalardan foydalanish

Bugungi kunda turli raqamli dasturlar va platformalar orqali musiqa nazariyasini o'rgatish imkoniyatlari kengaygan. Interaktiv ta'lim dasturlari, mobil ilovalar yoki musiqiy platformalar orqali o'quvchilar nota o'qish, musiqiy ritmni tushunish kabi ko'nikmalarni mustaqil ravishda rivojlantirishi mumkin. Bu esa dars jarayonini yanada jonlantiradi va o'quvchilarning mustaqil o'rganishiga imkon beradi.

3. O'zaro baholash va fikr almashish

Interfaol metodlardan biri bo'lgan o'zaro baholash va fikr almashish. O'quvchilar bir-birlarining ijrolarini baholashadi, tahlil qilishadi va o'z fikrlarini bildirishadi. Bu esa nafaqat musiqiy bilimlarni, balki tanqidiy fikrlash va muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Interfaol metodlardan foydalanish musiqa nazariyasi darslarida bir qancha afzalliklarga ega:

- Motivatsiyani oshirish – dars jarayoniga faol ishtirok orqali o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishi ortiradi.

- Ijodkorlikni rivojlantirish – interfaol usullar ijodiy fikrlash va o'ziga xoslikni rivojlantiradi. O'quvchilar musiqiy ijod jarayoniga faol jalb qilinadi.

- Kooperativ o'rganish – guruhda ishlash, bir-biriga yordam berish orqali o'quvchilar o'zaro muloqot va hamkorlik qilish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Xulosa qilib aytganda, Musiqa nazariyasi darslarida interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ular o'quvchilarning faolligini ta'minlaydi, ijodkorlik va musiqiy idrokni rivojlantiradi. Shu sababli, zamonaviy musiqiy ta'lim tizimida interfaol yondashuvlar muhim o'rinni egallashi lozim. Ta'lim jarayonida bu metodlardan oqilona foydalanish o'quvchilarning musiqiy bilimlarini chuqurlashtiradi va ularga musiqa olamiga yanada chuqurroq kirib borish imkoniyatini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Abdukarimov R., Musiqa ta'limida innovatsion pedagogika texnologiyalari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Pedagogika Instituti, 2019.

Xolmatov A., Ta'lim jarayonida musiqiy loyihalash texnologiyalari. Buxoro: Buxoro Davlat Pedagogika Universiteti, 2022.

Ilkhamov B., Musiqa va san'at maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti, 2017.

Nazarov D., Musiqa darslarida multimedia texnologiyalarini qo'llashning afzalliklari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Pedagogika Instituti, 2021.

Yarashev J. Murotova D. Musiqa o'qitish texnologiyasi va loyihalash. Buxoro davlat pedagogika instituti 2024.

